



QALAMIDAN NASIHAT TARALUVCHI MAXTUMQULI

Atadjanov Muxammad Abdusharipovich

O'zbekiston davlat konservatoriysi professor v.b, kompozitor

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-March 2024 yil
Ma'qullandi: 20- March 2024 yil
Nashr qilindi: 25- March 2024 yil

KEY WORDS

E'tiqod, tasvvuf, klassik adabiyot, turkman she'riyati, san'ati, nasihat..

ABSTRACT

Mazkur maqolada turkman klassik adabiyotining asoschisi, nasihatomuz asarlari bilan dunyoga mashhur shoir Maxtumquli ijodiyoti haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.



Maxtumquli O'zbek va Turkman xalqining iftixori hamda yorqin adabiy siyemosidir. Uning adabiy merosida O'zbek va Turkman xalqlarining qon-qardoshlik tuyg'ulariga tamg'alangan deyish mumkin. Ayniqsa, Ahmad Yassaviyning ta'siri, so'z mulkining sultonı Alish Navoiyga izdoshlik chizgilari aynan Maxtumqulining bitgan she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Maxtumquli 1733-yilda Turkmanistonning Atrak daryosi bo'yidagi Hojigovshon qishlog'ida tug'ilgan. Bo'lajak shoirning bobosini ham Maxtumquli deyishardi.

Bobosining kasbi dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanish bo'lgan. Ayni paytda xalq qo'shiqlari yo'lida she'rlar ayta oladigan oqin (baxshining bir turi) sifatida ham tanilgan. Shoirning otasi Davlatmamat 1700-yilda tug'ilgan bo'lib, Xiva madrasasida tahsil ko'rGAN, keyinchalik shu madrasada mudarrislik ham qilgan juda o'qimishli ziyoli inson edi. Maxtumqulining otasi iste'dodli shoir bo'lib, Ozodiy taxallusi bilan qo'shiq va g'azallar yozgan. Turkman adabiyoti taraqqiyotida Ozodiy alohida mavqega ega ijodkor sanaladi. Maxtumquli dastlabki ta'limni o'z otasidan olgan. So'ng ovul maktabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qidi.

Tahsil davomida u o'zini har qanday og'ir nazariy masalalarni ham yengil o'zlashtira olishga qodir iqtidorli o'quvchi sifatida namoyon eta bildi. Maktab tahsili tugagach, o'qishni Qiziloyaq ovulidagi Idrisbobo, Buxorodagi Ko'kaldosh, keyinchalik xonlik markazi bo'lmish Xivadagi Sherg'ozi madrasalarida davom ettirib, zamonasining fozil kishisi bo'lib yetishdi. Maxtumquli hali bola yoshidanoq qo'lliga qalam olib, she'r yozishga qiziqqan va shu davrdan turli she'riy misralarni qog'ozga tushira boshlagan.

To'qqiz yoshda bobosi va otasi izidan borib, xalq yo'lida qo'shiqlar to'qiy boshlagan. Ayni tajriba uning kelajakda mukammal badiiy ijod sohibi bo'lishida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shoir ba'zi she'rlarida «Firog'iy» taxallusini qo'llaydi. Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon singari mamlakatlar hamda Samarqand, Toshkent, Turkiston kabi bir qancha

shaharlarga sayohat qilgan. Maxtumquli ijodi lirik she'rlar, liro-epik dostonlar, g'azal, mumtoz she'riyat yo'lida bitilgan to'rtlik va muhammaslar hamda xalqona ohanglarda yozilgan she'rlardan iborat. Maxtumqulining ijodi bilan maxsus shug'ullangan mutaxassislarning fikricha, shoир ijodining umumiyligi hajmi o'n ming misradan ortiqroqni tashkil etadi. Shoирning bir qator she'rlarida turkman xalqining hayoti, orzu-armonlari, milliy an'analari aks ettirilgan.

Shoирning birqancha sheriy asarlari o'zbek va qardosh Turkman san'atkoriлari orasida kuylanib kelmoqda. O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozovning ijodidagi nasihatomus ohangdagi ijro etilgan qo'shiqlarning katta ko`pchilik qismi aynan Maxtumquli qalamiga mansub shersharki.

Demak Maxtumquli faqat adabiy muhitga emas balki musiqiy san'atiga ham o'z hissasini qo'shgan shoир deyish mumkin.

Maxtumquli sher'iy san`at orqali insonning butun hayotini yaqqol ko`rsatib bera olgan.

Foni deb dunyoni Aylab san bayon,

Kelgan nima ko'rди bu dunyo sandan.

Qirq yil yomg'ir yog'ib tuproqdan bo'lgan,

Odam nima ko'rди bu dunyo sandan.

Sheriy misra qoshiq qilib kuylangan bo'lib bunda insonyatning yaralish payti va Odam atoning yaratilishi uning bu hayotda ko'rgan kechirganlariga nozik qochirimlar orqali tasvirlanganligini ko'rshimiz mumkin. Mazkur misralarda dunyoning ishlari va diniy qarashlar afsonalarning uyg'unligi jamuljam bo'lganligini ko'rshimiz mumkin.

Shoирning hayot va o'lim, inson va borliq, go'zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she'rlarida Islom dini va tasavvufiy qarashlar yaqqol sezilib turadi. Bunday she'rlar shoир to'plamlarining salmoqli qismini egallaydi. Hatto muhabbat mavzusidagi eng go'zal she'rlari yaratganga bo'lgan ilohiy ishq kechinmalari bilan uyg'un tarzda berilganligini kuzatish mumkin:

Asli seni ko'rmaganman, nigorim!

Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?

G'amgin dilni hayoling-la aldarman,

Bog' ichinda bir gulmisan, namasan?..

Yo mushkmisan, yoki jambil, yo anbar.

Aytolmayman, yo charxmisani, yo chambar.

Daryomisan, yo mavjmisani, yo savsar,

Girdobmisan, to'lqinmisani, namasan?..

She'rdagi yor asilda ayol emas balki Alloh bo'lib, avvalgi misrada bu dunyoda uni ko'rmagani aytimoqda va tabiatdagi eng nafis tasvirlar, go'zallik ramzlari orqali ana shu ilohiy nigorni topish istagini, ishtiyoyqini shoир yashirmaydi.

Ayni paytda shoир, she'rlarida ma'naviy-axloqiy mavzular ustuvorligini ko'rshimizmumkin. Muallif Sharq allomalari tafakkur gulshanidan bahramand bo'lgan, xalqning yuksak ma'rifiy qarashlarini o'ziga singdirgan donishmand sifatida namoyon bo'ladi. Uning o'gitlari avlodlarni axloqiy poklikka, ma'naviy yuksaklikka o'rgatadi:

Har yigitning aslin bilay desanggiz,

Marakada o'tirib turishin ko'ring.

Birov bilan oshno bo'lay desanggiz,

Avval vadasinda turishin ko'ring.

She'rdagi mazmunga qaraydigan bo`lsak insonni kim ekanligi uni marakada ko`rinadi uning yaxshi yoki yomon inson ekanligini shu payti bilish mumkin demoqchi bo`lsa sheriy parchaning davomida biron inson bilan do`stlashish uchun uni sinovdan o'tkazish bergen vadasiga vafo qila olishini sinash kerakligi haqida aytadi. Bu she'rni ham ustoz san`atkor Komiljon Otaniyozov kuyga solib qo'shiq qilib kuylagan xalq orasida keng tarqalishiga sababchi bo`lgan

Maxtumquli uslubida, asarlarining shakli va mazmunida turkman og'zaki ijodi namunalarining ta'siri sezilib turadi. U turkman maqol, matallarini, xalq tiliga xos unsurlarni adabiyotga olib kirishda katta xizmat qilgan. Ayni paytda shoirning purma'no misralari millatning hikmatli so'zлari, aforizmlari qatoridan joy olgan.

Maxtumquli she'riyati barcha turkiy millatlar, jumladan, o'zbeklarning ham ma'naviy mulkiga aylangan. Bir necha marta she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. U haqida kinofilm, spektakl va badiiy asarlar yaratilgan.

Xulosa:

Maxtumquli shoir sifatida yaratgan asarlari unung umri davomida ko`rgan kechirgan tajribalari bilan uyg'unlikda yaxlit bir butunlini tashkil etadi. Uning o'z davrida insonyat hayoti borasida bildirgan fikirlari bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotganligi yuqorida takidlagan fikirlarimiz, yuritgan mulohazalarimiz uchun isbot bo'ladi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohirova Q. O'zbek turkman adabiy aloqalari. T. 1979.
2. Maxtumquli. She'rlar. Toshkent. 1976.
3. Kuramboyeva K. Maxtumquli she'riyati O'zbekistonda. "Fan". Toshkent, 1984 y.

